

Obid AHMEDOV,
Chilonzor tumani nuroniylar
jamoatchilik kengashi raisi
o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Yaqin orada xalqimiz uchun eng ulug‘ va eng aziz sana — mustaqillikka erishganimizga 34 yil to‘lishi munosabati bilan yurtimizda umumxalq bayrami bo‘lib o‘tadi. Bu farahli kunlarda biz, nuroniylar uchun bayram tadbirlarida ishtirok etish, yoshlar bilan Vatan haqida suhbat qurish, ular qalbida milliy iftixor chirog‘ini yoqish eng katta sharaf va saodatdir. Zero, shoir aytganidek, “bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor”.

Yurtimiz mustaqillikka erishgan kunlar umrimning ellik yoshdan oshgan davriga to‘g‘ri keldi. O‘sha tarixi ulug‘, taqdiriy pallada menda bittagina orzu bor edi: ta‘lim-tarbiya tizimi va davlat idoralarida orttirgan bilim, tajriba va hayotiy saboqlarimni yosh, mustaqil Vatanim ravnaqi yo‘lida sarflash.

Vaqt o‘tdi, yillar oldinga siljidi, lekin bu orzu hech qachon so‘nmadi. Mana, hozir 85 yoshga to‘lsam-da, hanuz el xizmatidaman. “Nuroniy” jamg‘armasi va mahalla hayotida jamoatchilik yo‘nalishida faol ishtirok etib kelyapman. Yurt ravnaqi, xalq manfaatini yo‘lidagi har bir qadamdan, har bir ezu sa‘y-harakatimdan ruhiy quvonch va ma‘naviy qanoat topaman.

Men uchun eng katta baxt bugungi kunda Vatanimda kechayotgan ulkan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga, hayotimning shu yoshida ham qurbim yetganicha hissa qo‘shib, bu jarayonning bevosita ishtirokchisi bo‘lib qolishdir.

Oxirgi yillarda yurtimizdagi islohotlar sur‘ati va ko‘lamini baholash uchun qiyos topish mushkul. Prezidentimiz davlat rahbarligi mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olgan ilk kunlaridanoq barcha sohalarida ulkan yangilanishlar jarayonini boshlab yubordi. Bu o‘zgarishlar, avvalo, xalqimizni yillar davomida qiyab kelgan og‘riqli muammolarni bartaraf etishdan boshlandi.

Misol uchun, keksalar hayotidagi qator adolatsiz va qiyinchilik keltiruvchi holatlar o‘tmishda qoldi. Ilgari pensiyalar o‘z vaqtida to‘lanmas, to‘lansa ham plastik kartalardagi mablag‘ni naqdlashtirish katta mas’haqqatga aylanar edi. Nuroniylar mehnat qilishda davom etsa, pensiyaning to‘liq miqdorini olish huquqidan mahrum bo‘lardi.

Shuningdek, kundalik hayotimiz uchun zarur bo‘lgan gaz, suv, elektr ta‘minoti, yo‘llar holati va mahalla infratuzilmasidagi ko‘plab nosozliklar aholini qiyinar, odamlar fikrida “bu masalalar yechilmaydi” degan beixtiyor ishonchsizlik hukm surardi. Bugun esa ana shu muammolarga tizimli yechim topilmoqda, xalqning kundalik hayotidagi qulayliklar ortib, kelajakka ishonch yanada mustahkamlanmoqda.

Butun xalqimiz taqdiriga daxldor bo‘lgan ishsizlik, kambag‘allik kabi og‘ir muammolarga yechim topilishiga bir paytlar umidimiz ham so‘nib borayotgandek tuyular edi. Ana shunday vaziyatda davlatimiz rahbari “Xalqimiz olis kelajakda emas, bugun baxtli yashashga haqli” degan ulug‘ maqsadni ilgari surdi. Bu g‘oya inson qadriini barcha narsadan ustun qo‘ygan, hayotining har bir jabhasini qamrab olgan islohotlar jarayonini boshlab berdi.

Natijada bugungi kunda ilgari, asosan, xomashyo yetkazib beradigan o‘lka sifatida tanilgan yurtimiz endi sanoati izchil rivojlanayotgan, iqtisodiy qudrati yil sayin ortib



borayotgan davlatga aylanmoqda. Yurtimiz qiyofasi yangilanib, shahar va qishloqlarimiz obod va fayzli maskanlarga aylanmoqda. Mahallalarimizdagi zamonaviy infratuzilma, obod yo‘llar, ko‘kalamzor bog‘lar xalqimiz hayotiga yangi ruh, yangicha kayfiyat olib kirmoqda.



Eng quvonarlisi, yoshlarimiz uchun ta‘lim olish, yaxshi kasb-hunar egallash, zamonaviy sharoitlarda ishlash, to‘kis va farovon hayot kechirish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Bu faqat statistik raqamlarda emas, balki kundalik hayotimizda yaqqol namoyon bo‘layotgan voqealik. Men bunga o‘z farzandlarim va nabiralarim misolida, qolaversa, mahalla va tumanimiz yoshlari hayotida ko‘p bora guvoh bo‘lib kelyapman.

Dilbandlarimizning baxtli qiyofasi, orzulari ro‘yobga chiqqaniga shohid bo‘lish biz, keksalar uchun beqiyos baxt va iftixordir. Bu qalbimizga quvonch, hayotimizga ma‘no, umrimizga umr qo‘shadi. Ertangi kunga ishonch va umidimiz yanada mustahkamlanadi.

Albatta, bunday fayzli, obod va baxtli kunlarga yetganimiz uchun har qancha shukrona aytask arziydi.

Bugungi kunda keksalarga e‘tibor faqat moddiy yordam yoki imtiyozlar bilan cheklanib qolmayapti. Asosiysi, ularning jamiyatdagi o‘mi va qadri yanada yuksalmoqda. Nuroniylarimiz davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o‘z tajribasini yoshlar bilan o‘rtqolashishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu orqali nafaqat yoshlar tarbiyasida, balki ma‘naviy muhitda ham ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Shuningdek, urush va mehnat faxriylarining qadriini ulug‘lash, xotirasini abadiylashtirish maqsadida turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Sayohatlar, ziyoratlar, sport va madaniyat muassasalaridagi bepul xizmatlar —

bularning barchasi keksalarimizga “siz bizga keraksiz, siz biz uchun azizsiz” degan ulkan ma‘noni ifodalaydi.

Ayniqsa, “Hech kim mehr va e‘tibordan chetda qolmasin” shiori ostida amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat yolg‘iz keksalar, balki butun jamiyatda insoniylik va hamjihatlik ruhini mustahkamlamoqda. Chunki keksalarga ehtirom bu o‘z o‘tmishingga, o‘z ildizingga bo‘lgan ehtiromdir.

Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami arafasida biz, nuroniylar Vatanimizda kechayotgan o‘zgarishlardan faxrlanamiz va yoshlarimizga shuni tilardik: bugungi tinch va farovon hayotni, erkinlik va mustaqillik ne‘matini himoya qiling, unga munosib bo‘ling, uning yanada gullab-yashnashini ta‘minlang. Chunki kelajak sizning qo‘lingizda, yurtimizning ertangi taqdiri sizning ma‘naviy barkamolligingiz va Vatanga sadoqatingizda.

Shukrona bilan aytamizki, bugungi kunda Vatan tuyg‘usi, millat iftixori va birdamlik



bilan tinglayman. Shu asosda ularga to‘g‘ri yo‘l topish, to‘siqlarni yengib o‘tish va jamiyatda munosib o‘rin egallashda mashaht va amaliy yordam berishga harakat qilaman.

Bu yo‘lda qator davlat va nodavlat tashkilotlar biz bilan hamkorlikda ishlayotgani muhim ahamiyatga ega. Ularning ko‘magi tufayli yoshlar bilan ishlash samarasi ortyapti, ko‘plab ijobiy natijalar qo‘lga kiritilmoqda.

Ayniqsa, “Bir nuroniy — o‘n yoshga mas‘ul” loyihasi amaliy samara bermoqda. U nafaqat yoshlar kamolotiga xizmat qilmoqda, balki ikki avlod o‘rtasidagi mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutmoqda. Shu bilan birga, nuroniylarning jamiyatimizda kechayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash, oilalarda ahillik va totuvlikni saqlash, tinchlik va osoyishtalik muhitini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda.

Eng asosiysi, loyiha yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini chuqur singdirishda samarali vositaga aylandi. Biz, nuroniylar bu yo‘lda bor bilim va tajribamizni ayamaymiz, chunki bugungi yoshlar ertangi kunning mas‘uliyatli vakili, yurtimiz taqdiri egalari hisoblanadi.

O‘z navbatida, ertangi yorug‘ kelajigimiz yo‘lida fidoyilik va tashabbuskorlik bilan ishlayotgan nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash,

rag‘batlantirish yo‘lida qator amaliy choralar ko‘rildi. Jumladan, “Faxriy murabbiy” ordeni va “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni ta‘sis etildi, shuningdek, tuman va shaharlarda “Nuroniylar maskani” majmualari tashkil qilindi.

Bu tashabbuslar nafaqat keksalarga munosib e‘zoz, balki jamiyat ma‘naviy muhitini boyitishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, katta tajribaga ega nuroniylar, uzoq yillar turli sohalarida samarali mehnat qilgan obro‘-e‘tiborli faxriylar salohiyati yoshlar tarbiyasida beqiyos manbadir. Ularning hayotiy saboqlari va ma‘naviy boyligini yosh avlodga yetkazish orqali jamiyatimizdagi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligi oshadi, yoshlarni faollikka undaydi, qalbida Vatan tuyg‘usini yuksaltiradi.

Shu bilan birga, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqarib, yorug‘ kelajakka intilish hissini kuchaytirishga zamin yaratiladi. Bu esa mustaqil, taraqqiyparvar va ma‘naviy yetuk avlodni shakllantirish yo‘lidagi muhim omillardan biridir.

Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv jarayonlari kechayotgan davrda bu masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchligimizni asrab-avaylash, odamlarimiz, ayniqsa, yosh avlodni bugungi tinchlik va osoyishtalik qadriga yetishga o‘rgatish, yot g‘oya va mafkuralar ta‘siridan asrash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona



ularning umriga umr qo‘shish va boy hayotiy tajribasidan yoshlar kamolotida keng foydalanish doimiy e‘tiborda turibdi. Shu maqsadda nuroniylarning ijtimoiy faolligini

yurtga mehr va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirish “Nuroniy” jamg‘armasi atrofida birlashgan biz, keksa avlod vakillarining muqaddas burchidir. Shuningdek, ijtimoiy-ma‘naviy muhitni

Nuqtayi nazar

Yaqinda xonadonimizni ta‘mirlatdik. El qatori biz ham ishni hamyonbop va sifatli qurilish materiallari hamda mohir, arzon ishlaydigan ustalarini izlashdan boshladik. Ammo ustalarining ish haqi ancha baland ekan. Izlay-izlay qishlog‘imizdan kelib, poytaxtda ishlayotgan ustalardan birini topdik. U bilan kelishilgach, ish boshlanib ketdi.

Ishboshi 30 yoshlardan oshgan, yordamchisi esa undan 5-6 yosh kichik. Shu yil maktabni bitirgan yana ikki navqiron yigit yaqinda ularga shogird tushibdi. Ustalarining ishini kuzatar ekanman, “Yigitlar ancha yosh ekan, sifatli ishlay olarmikan?” degan o‘y miyamda g‘ujg‘on uradi. Ularning mahorati, tajribasiga ishonch hosil qilish uchun turli savollar beraman. Ustaboshi Farid Jumayev qishlog‘imizdagi kasb-hunar kollejida chilangarlik bo‘yicha o‘qigan. Sheriklari ham bandlik yo‘nalishidagi kurslarda malaka oshirgan. Qolaversa, bir nechta yirik inshootlar qurilishida ishlash, tajriba orttirgan ekan.

Ish davom etar ekan, ustalarining haqiqatan mahorati va tajribasi yuqori ekaniga ishonch hosil qildim. Ular qurilish-ta‘mirlash jarayonida yuzaga keladigan har qanday yumush — yog‘ochsozlik, loysuvuq, chilangarlik, lok-bo‘yoq, lo‘mboz urish, elektr tarmog‘ini sozlash kabi ishlarni sifatli bajardi. Bir yarim oydan ko‘proq davom etgan qurilish-ta‘mirlashdan keyin uyimiz yangicha qiyofaga kirib qoldi.

Ustalarining epcilligi, mahoratini ko‘rgan qo‘shnilarimiz ham ularga ish taklif qildi. Ustalarining ish haqi ham chakki emas, oyiga 10-15 million so‘mdan topdi. Ana shunday halol va sidqidildan qilingan mehnati ortidan yosh bo‘lishiga qaramay, oilasining uy-joy, mashina va boshqa sharoitlarini hozirdanoq ta‘minlab qo‘ygani uchun ularga havasim keldi.

— Buyog‘iga farzandlarimizni o‘qitish, oliy ma‘lumotli qilish uchun ishlaymiz-da, — deydi ustaboshi.

Yoshlardan xorijga chiqib ishlash haqida so‘rasam, bunga qiziqishi ham, ehtiyoji ham yo‘qligini aytdi. Yosh bo‘lishiga qaramay, yigitlarning erishayotgan yutuqlari quvonarli. Axir bundan bir necha yil ilgari maktabni tugatib, mustaqil hayotga qadam qo‘yganelarda bunday imkoniyat yo‘q edi-da. Qo‘lida biror hunari bo‘lmagan, hunari bo‘lsa-da, o‘ziga munosib ish joyi topmagan navnihol yoshlar oilasi, ota-onasi, yaqinlari mehridan uzilib, uzoqlarda ishlashga majbur edi.

60 TUMAN VA SHAHAR KAMBAG‘ALLIKDAN XOLI HUDUD BO‘LADI



Bugun vaziyat tubdan o‘zgarimoqda. Ijtimoiy davlat maqomini olgan mamlakatimizda, avvalo, yoshlarga zamonaviy bilim berish, hayotda o‘z o‘mini topishi uchun hunarli qilishga e‘tibor kuchaydi. Bu xayrli ishlar jamiyatimizdagi dolzarb ijtimoiy muammolarni oqilona hal etishga zamin yaratmoqda. Xususan,

kambag‘allikni kamaytirish borasidagi ishlar natijasida tub o‘zgarishlarga erishilayotir. Mamlakatimizda bu yo‘nalishdagi ishlar 2020-yilda boshlangan edi. Bu borada ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi standartlari va xalqaro tajriba o‘rganilib, o‘z uslubimiz ishlab chiqildi hamda kambag‘allik darajasini

aniqlashning minimal iste‘mol xarajatlarini hisoblash usuli joriy etildi. Mahallalarda “hokim yordamchisi” instituti yo‘lga qo‘yildi, har bir kambag‘al oilaning individual dasturi ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarning ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirishga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Foizsiz ta‘lim kreditlari, ehtiyojmand qizlarga grantlar ajratilishi, magistratura ta‘limi uchun mablag‘ davlat tomonidan qoplab berilishi kabi juda katta imtiyozlar bevosita oliy ta‘limdagi xotin-qizlar ulushi ortishiga xizmat qilmoqda. Ushbu xayrli ishlar tufayli so‘nggi yillarda yurtimizda qizlarning oliy ta‘limdagi qamrovi oshib bormoqda.

Bu yo‘nalishda katta ishlar boshlanganida 7,5 million kishi yoki aholining 23 foizining daromadini kambag‘allik chegarasiga yetmagan bo‘lsa, bugunga kelib, kambag‘allik darajasi 6,8 foizga tushdi. 2030-yilga qadar esa ushbu ko‘rsatkichni keskin qisqartirish reja qilingan. Shu maqsadda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim dasturlarni bo‘lmoqda. Unga asosan, 1,5 million kishini kambag‘allikdan chiqarish va kambag‘allik darajasini yanada qisqartirish belgilangan.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan hamkorlikda “Kambag‘al oilalar reyestri” ishga tushirildi. Bugunga qadar 1,3 milliondan ortiq oilaning turmush sharoiti o‘rganilib, 625 mingtasi reyestrga kiritildi.

sog‘lomlashtirish, diniy qadriyatlardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanish, jamiyatda jinoyatchilik va diniy mutaassiblikning oldini olish maqsadida “Jaholatga qarshi ma‘rifat” g‘oyasi asosida turli ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Sport sohasida ham yoshlar tarbiyasiga xizmat qiladigan ishlar qilinaypti. Respublika va xalqaro maydonlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan faxriy chempionlar, sportchi-povlonlar ishtirokida mahallalarda “Unutilmas chempionlar” va “Faxriy povlonlar” mavzularida uchrashuvlar uyushtirilmoqda. Bu tadbirlar yoshlar qalbida g‘ayrat, iroda va maqsad sari intilish tuyg‘usini uyg‘otmoqda.

Kasb-hunarga ega bo‘lmagan yoshlar bilan bir qatorda sport, fan va boshqa sohalarida yuqori natijalarga erishgan, shuningdek, o‘zini o‘zi ish bilan ta‘minlang nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda paralizmga musobaqalari sovrindorlari ishtirokida “Matonat va jasorat” ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlari o‘tkazilmoqda.

Bunday uchrashuvlar yoshlarning hayotga intilishini kuchaytiradi, ularni bilim olish, kasb-hunar egallash va hayot yo‘lida dadil qadamlar tashlashga ruhlantiradi. Bu har bir yosh kamolotida muhim turki vazifasini o‘taydi.

Ana shunday ezu ishlarga faol hissa qo‘shayotgan nuroniylar mehnatini munosib rag‘batlantirish doimiy e‘tiborda turibdi. Xususan, “Bir nuroniy — o‘n yoshga mas‘ul” tamoyili asosida samarali faoliyat yuritayotgan va yoshlar hayotida ijobiy natijalarga erishgan nuroniylar “Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirib kelinmoqda. Bu, o‘z navbatida, nuroniylarning jamiyat hayotida yanada faol bo‘lishiga va yoshlar bilan ishlashda yangi tashabbuslarni ilgari surishiga xizmat qilmoqda.

Bu kabi e‘tibor va rag‘bat biz, faxriylarni, shubhasiz, yanada faol bo‘lishga undaydi. Men ham doimo harakat va izlanishdaman. Amaliy ishlarim qatorida o‘z tajribam va hayotdan olgan saboqlarimni yoshlarga kengroq yetkazish, farzandlarimizning yurtimiz yaqin tarixiga oid bilimlarini boyitish maqsadida so‘nggi yillarda bir necha kitob yozdim. Ularni homiylar ko‘magida nashr etib, tumanimizdagi turli madaniy-ma‘rifiy muassasalarga tarqatdim.

Maqsadim shuki, o‘g‘il-qizlarimiz ona Vatan tarixi va ota-bobolarining ezu orzu-umidlari haqida chuqurroq bilim va tushunchaga ega bo‘lsin. Ishonchini komilki, bu ularning o‘zligini chuqur anglashi, ulkan yaratuvcilik va bunyodkorlik ishlariga kamarbasta bo‘lishiga muhim turki bo‘ladi.

Hayot davom etar ekan, ana shunday ezu umidlari bilan yo‘g‘rilgan harakatlardan to‘xtamaymiz. Biz, nuroniylarga bildirilayotgan yuksak ishonch va e‘tiborga javoban boy hayotiy va kasbiy tajribamiz bilan yurtimiz obodligi, farovonligi va gullab-yashnashi yo‘lida kuch-g‘ayratimizni ayamaymiz.

Mustaqilligimizning 34 yili davomida amalga oshirilgan ulkan islohotlar, erishilgan tarixiy natijalar va yangicha fikr tarzi xalqimizning hayot darajasi, tafakkuri va kelajakka ishonchini mutlaqo yangi pog‘onaga ko‘tardi. Ayniqsa, Prezidentimizning xalq bilan ochiq muloqotga tayangan, inson qadriini barcha narsadan ustun qo‘ygan, har bir qaror va tashabbusda milliy manfaatlar va xalq farovonligini ustuvor bilgan davlatchilik siyosati samarasi yurtimiz hayotining barcha jabhasida namoyon bo‘lmoqda.

Nuroniylarga yuksak e‘tibor, keksalarning boy hayotiy tajribasini yoshlar tarbiyasida qo‘llashga bo‘lgan ishonch va rag‘bat biz, keksa avlod vakillari uchun katta iftixordir. Prezidentimiz ilgari surgan “Xalqimiz bugun baxtli yashashga haqli” degan ulug‘ g‘oyani amalga oshirishda har birimiz o‘zimizning ma‘naviy burchimiz va javobgarligimizni to‘liq his etamiz.

Biz, nuroniylar xalqimizning birdamligi, yurtimiz tinchligi va farovonligi yo‘lida doimo faol bo‘lamiz. Chunki yangi O‘zbekiston qurilishi barchamizning umumi sa‘y-harakatimiz va kelajak avlodlar oldidagi eng katta merosimizdir. Shu yo‘lida biz o‘z hayotiy tajribamiz, ma‘naviy quvvatimiz va Vatanga muhabbatimizni ayamay, yanada yuksak maralarga erishishga intilamiz.

— Birinchi yarim yillikda 158 mingta oilani kambag‘allikdan chiqarish belgilangan edi. Amalda individual rejarlar asosida 333 mingta oilaga yoki 1 million 472 ming kishiga kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan 543 mingta xizmat ko‘rsatildi, — deydi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi departament boshlig‘i o‘rinbosari Muxtor Shonazarov. — Bu oilalarning 295 ming a‘zosi doimiy ishga joylashtirildi, 37 mingta imtiyozli kredit va subsidiya ajratildi, 198 mingta tadbirkorlikka jalb qilindi, 13 mingi kasb-hunar bo‘yicha o‘qitildi.

Dastur doirasida mingdan ortiq og‘ir toifadagi mahalla infratuzilmasini yaxshilashga budgetdan 3,2 trillion so‘m ajratish belgilandi. 864 ta mahallada sug‘orish tizimini yaxshilash bo‘yicha 1,4 trillion so‘mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Natijada ushbu mahallalardagi 650 mingta tomorqadan samarali foydalanish imkoni yaratildi.

Bu ishlar ayni paytda davom etmoqda. Ikkinchi yarim yillikda individual rejarlar doirasida 250 mingta kambag‘al oilaga tegishli xizmat ko‘rsatiladi. Mingta mahallada servis kompaniyalari tashkil etilib, 3000 ta mahalla obodonlashtiriladi. Bu orqali 3300 kambag‘al oilaning 15 ming a‘zosi ish bilan ta‘minlanadi.

Og‘ir toifaga kiruvchi yana mingdan ziyod mahallada infratuzilmani yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi. Aholiga ijaraga berilgan yerlarda past daromadli ekinlar o‘rniga zamonaviy intensiv bog‘lar barpo etiladi. Natijada kambag‘allik darajasi yil yakuniga qadar 6 foizgacha tushiriladi. 60 ta tuman va shahar kambag‘allikdan xoli hududga aylanadi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MUSTAQILLIK VA MA’NAVIYAT

(Birinchi maqola)



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Bugun yangi O‘zbekistonda aholi, ayniqsa, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular ongiga milliy o‘zlik tamoyillarini chuqurroq singdirish bilan bog‘liq vazifalar ado etilayotgan bir davrda sobiq mustabid tuzumning ilk davrlaridanoq odamlarni sho‘ro mafkurasida, sotsialistik inqilob ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor berilgani, mazkur ishlar milliy-axloqiy qadriyatlarni yo‘q qilish asosida olib borilganini yana bir bor eslash lozim.

O‘sha davr kompartiyasining maddohlari o‘zining eng dolzarb vazifasi sifatida kun tartibiga aholini inqilobiy ruhda tarbiyalash masalasini qo‘ydi. Ularning fikricha, axloq borasidagi inqilobiy kayfiyat, eng avvalo, inqilobiy jo‘shqinlik asosida shakllandi. Inqilobiy axloq tushkunlik, o‘z ishiga umidsizlik, eski, chirindi mafkuralar bilan kelisha olmaydi. E’tibor qiling-a, ming yillar davomida shakllangan milliy taraqqiyot g‘oyalariimiz, mutafakkir allomalarimiz tomonidan yaratilgan milliy axloq konsepsiyalari “chirindi”, “eski” emish!

Oqibatda milliy-ma’naviy, xususan, axloqiy qadriyatlar deformatsiyasi, aynishi, buzilishi, qadriyatlar qadrsizlanish jarayoni yuzaga keldi. Ayniqsa, mustabid sovet tuzumi sharoitida milliy ma’naviyat o‘sha davrda shakllangan dohiylik mafkurasiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bunday mafkuraning mohiyati qator “dohiylar” shaxsiga sig‘inish, tarixni soxtalashtirish, sotsializmini yagona qadriyat sifatida e’tirof etishdan iborat bo‘ldi. Bunday sharoitda dohiylik mafkurasi jamiyat ma’naviy hayotini izdan chiqardi, ommaviy ong faqat bir jihatga — kishi tafakkurida sotsialistik qadriyatlarni ulug‘lashga qaratildi.

Milliy-ma’naviy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlar qadrsizlanishi o‘tgan asrning 70-80-yillarida avj oldi. Jamiyatda, xususan, ma’naviy hayotda demokratiyaning cheklanishi, axloqiy qadriyatlarga nisbatan bepisandlik munosabati asta-sekin odamlarda siyosiy hayotdan begonalashuv jarayonini yuzaga keltirdi. Bunday begonalashuv esa ijtimoiy sustlikka olib keldi. Ijtimoiy sustlik har doim ham ijtimoiy boqimandalik bilan uyg‘un holda o‘zini ko‘rsatadi. Bu davrda avvallari burjua axloqi deb tanqid qilingan “jamiyatga oz berib, ko‘proq olish” tamoyili avjiga chiqqa boshladi.

Axloqiy qadriyatlar qadrsizlanishi, yemirilishiga o‘sha yillarda avj olgan xizmat lavozimini suisite‘mol qilish, tanqid uchun tanqid etish, qo‘shib yozish, davlat mulkini talon-taraj qilish, ko‘zbo‘yamachilik, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga beparvolik kabi illatlar ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayni paytda kishilarning muayyan qismida u yoki bu masalada bir xil gapirish va boshqacha fikrlashdan iborat rubiyi kechinma shakllandi. Shu o‘rinda taniqli adiblar Chingiz Aytmatov va Muxtor Shoxonovning subhatidagi quyidagi iqtibosni keltirishni lozim topdik: “Mustabid tuzum hukm surgan davrda butun jamiyatga, sen bilan mening, hammamizning dunyoqarashimizga mafkuraviy shiri kiydirib qo‘yildi. Shu yo‘sin hamma va har bir kishi qattiq bo‘yinturuq asosida yagona tuzum



manfaatlarga itoat etirildi” (Chingiz Aytmatov, Muxtor Shoxonov. “Cho‘qqida qolgan ovchining oh zori”).

Ha, ana shu, ayrim yurtdoshlarimiz hali ham sajda qilayotgan, qo‘msayotgan sobiq mustabid tuzumi hammamizga Chingiz Aytmatov aytgani kabi bo‘yinturuq kiygizdi, e’tiqodi sust ayrim odamlarimizni maqurgatga aylantirdi. Milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimiz toptaldi, yerga ko‘mildi, yondirildi, yo‘q qilindi.

Biroq milliy mustaqillik tufayligina biz azaliy milliy-ma’naviy, madaniy merosimizni saqlab qola oldik. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish kerakki, mustaqillik g‘oyalarni fuqarolar ongiga, milliy o‘zlikni xalqimiz tafakkur tarziga singdirgan fenomen hodisa ham ma’naviyat edi. Odamlarimizda “Qorninga emas, qadrimga yig‘layman” degan azaliy qadriyatni tiklagan, ozodlik, erk, mustaqillik kabi muqaddas tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglatgan omil ham ma’naviyat edi. Mamlakat mustaqilligi, yurt obodligi, odamlar erkinligi, shaxs qadri kabi yuksak qadriyatlarni real kuchga aylantirgan ham ma’naviyat, ma’rifatdir.

Ma’naviyat masalasi jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilindi. Odamlarni sovet davri g‘oyaviy-mafkuraviy zug‘umlaridan ozod qilish, ularning ongida shakllangan mustabidlik tafakkur tarzini bartaraf etish, jamiyatdagi ijtimoiy qo‘rquv hissini yo‘qotish borasidagi tizimli ishlar natija bera boshladi.

Ayniqsa, 2017-yildan keyin mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan ishlarni alohida qayd etish kerak. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat: birinchidan, bugungi dunyoning tobora globallashtirib borishi sharoitida ma’naviyat borasidagi ishlarimiz mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Ma’naviyat ishlari samaradorligini oshirishning huquqiy-ma’yoriy bazasi ishlab chiqildi.

Ikkinchidan, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, bu boradagi ishlarni tizimlashtirish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, uning hududiy bo‘lim va bo‘limlarni tashkil etildi.

Uchinchidan, ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi ishlarda turli boshboshdoqliklarning oldini olish, pala-partish ishlarni tartibga solish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur institut tomonidan ma’naviy sohadaagi ishlarni ilmiy tahlil qilish, soha samaradorligini oshirishning yangi yo‘l-yo‘riqlari, zamonaviy usullarini yaratish bo‘yicha jiddiy ishlar qilinmoqda.

To‘rtinchidan, hokimlik, vazirlik va boshqa tashkilot va muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tartibga solishda muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Prezidentimiz rahbarligida Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi tashkil etildi. Xuddi shunday, viloyat va tuman-shaharlar hokimlari rahbarligida hududiy kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Unutmashligimiz lozimki, milliy tarbiya va ma’naviyatimizning chuqur ildizlari yurtimizda tug‘ilib, ijod etgan mutafakkir allomalarimiz ilmiy merosida o‘z aksini topgan. Biroq tan olishimiz lozim, biz hali allomalarimiz milliy-ma’naviy merosini yaxshi o‘rganmaganmiz. Shuning uchun ham ma’naviyat, tarbiya bilan shug‘ullanuvchi tashkilot, muassasalar, ta’lim-tarbiya o‘choqlarida allomalarimiz yaratgan asarlarga muhtojlik bor.

Shu ma’noda, yaqinda Imom Buxoriy, Abu Hafs Nasafiy, Sirojiddin O‘shiy, Imom Zandavastiy, Alouddin Samarqandiy, Abul Muin Nasafiy kabi 10 nafar allomaning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan risolalar chop etilishini muhim voqea sifatida qabul qilish mumkin.

Darhaqiqat, bugun dunyoda sodir bo‘layotgan to‘s-to‘polonlar, turli mintaqa va davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatli holatlar, manfaatlar to‘qnashuvlari tarbiya va ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor berishni talab etmoqda. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlariga diqqat qilish kerak deb o‘ylayman: “Insoniyat tarixiga nazar solinsa, dunyodagi ko‘plab xalqlar, avvalo, o‘zining ma’naviy birligi va milliy g‘oyasi orqali yuksalishga erishganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ma’naviy rivojlanish bu — vijdon, o-nomus va adolati muvoqqadss bilib, el-yurt manfaatli uchun astoydil harakat qilish demakdir. Ma’naviyat

ziddiyatli, insoniyat taqdirida keskin burilish davriga kelib qoldi. Azaliy-an’anaviy qadriyatlar o‘mini faqat shaxsiy manfaat, aysht-ishrat, huzur-halovat mayllariga yo‘g‘rilgan “yangi e’tiqod va axloq” egallayotgani, axloqiy qadriyatlar millat va xalqlar mentalitetiga mos kelmaydigan huquqiy me’yorlar bilan almashirilayotgani, G‘arb tamaddunining demografik, milliy-etnik hamda ma’naviy asoslari yemirilayotgani insoniyatni jiddiy muammolar, hal etilishi juda murakkab bo‘lgan holatga olib kelmogda.

Afsuski, bunday salbiy holatlar mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ma’naviyat tanqisligi global muammolarni keltirib chiqarmoqda. Nazarimizda, bu balo-qazodan qutulib bo‘lmaydiganek. Chingiz Aytmatov bu haqda shunday yozadi: “Ayni chog‘da milliy axloq-odob, ko‘nikma, strategik ideallarga mutlaqo yot bo‘lgan va har kuni muvaffaqiyatli ravishda targ‘ib qilinayotgan “bozor ma’rifati”, “yangicha turmush tarzi”, afsuski, odamlar ongiga singdirilaypti. Shunday kunlarga ham yetib keldik. Yana bundan beshbattar bo‘ladi. Bu ham achchiq haqiqat”.

Keyingi paytdalar insoniyat taqdiridan xavotirga tushgan minglab ma’rifatparvarlar, ziyolilar dunyoni faqat va faqat ma’naviyat, ma’rifat qutqaradi, shuning uchun ham “ma’rifatli dunyo”ni barpo etish jahon afkor ommasining eng ustuvor vazifasi bo‘lishi kerak deb bong urmoqda. Biroq an’anaviy, odamlarni yaxshilik, ezigulik, insonparvarlik, samimiylik kabi umuminsoniy qadriyatlar sari yetaklaydigan “ma’rifatli dunyo” g‘oyasiga “bozor ma’rifati” tarafdorlari jiddiy qarshilik ko‘rsatmoqda.

Xo‘sh, “bozor ma’rifati” g‘oyasining asosi nima? Bugungi dunyoda o‘zaro sog‘lom insoniy munosabatlarni o‘rnatish beshafqat, o‘ta agressiv, radikal tuyg‘ularga burkangan nomussizlik, behayo nafs ehtirosslari, moddiyatga kulik, tarbiya va ma’naviyat jarayonini inkor etish, oshkora adolatsizlik, tengsizlik, xalqaro va milliy huquqiy me’yorlarga hurmatsizlik va mammanlik, inson zotining qadr-qimmatini oyoqosti qilishdek jirkanch axloqiy munosabatlarni nazarimizda “bozor ma’rifati” g‘oyasining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.



Pul va mulk fetishizmi har qanday samimiy insoniy tuyg‘ularni chetga qoldirtirmoqda. Tabiiy, an’anaviy qadriyatlar o‘rmini sun’iy, odamlarni moddiyatga qul qilishga, inson qadr-qimmatini bir chaqa pulga sotib yuborishga tayyor qadriyatlar egallamoqda. An’anaviy, tabiiy qadriyatlar esa sun’iy ideallar qarshisida nochor va himoyasiz ahvolga tushib qolmoqda. Tabiiy insonparvar aql o‘rmini sun’iy texnokratik aql egallamoqda. Bu esa insoniyatning hademay sun’iy aqlning itoatkor qiliga aylanib qolish ehtimolini yanada oshiryapti.

Biz yuqorida ma’naviyat tanqisligi haqida gapirgan edik. Darhaqiqat, oziq-ovqat, kiyim-kechak tanqisligiga chidash mumkin, astoydil harakat qilinsa, ularning tanqisligini bartaraf etsa bo‘ladi. Tafakkur tanqisligining ham oldini olsa bo‘ladi. Biroq ma’naviyat, tarbiya tanqisligining oldini olish o‘ta mushkul. Tartibsizlikka, axloqsizlikka, davlat va jamiyat tomonidan qabul qilingan turli huquqiy-ma’yoriy normalarni buzishdan rohat oladigan odamlarni tarbiyalashdan ham og‘ir masala bo‘lmasa kerak.

Taniqli faylasuf olim B.To‘rayevning ta’kidlashicha, ma’naviyat tanqisligi insoniyat to‘plagan ma’naviy meros durdonalari qadrsizlanishiga, insoniyatning o‘z tarixiy o‘tmishidan begonalashuviga olib borishi mumkin. Xullas, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy meros xavf ostida qolmoqda. Uni saqlab qolish, ma’naviyatsizlikdan asrash har qachongidan ham dolzarb. Ma’naviyatsizlikka duchor bo‘lgan insoniyat uchun millat, xalq, vatan manfaatlari ortiqcha tashvish hisoblanadi. E’tiqod, millatsiz, vatansiz ultrakosmopolit shaxslar to‘dasi vujudga keladi. Ular uchun millat, din, vatanning hech bir qadr-qimmatini yo‘q. Bunday shaxslar uchun o‘tmish ham, tarix ham, kelajak ham, ma’naviyat ham, ma’naviy meros ham keraksiz, ortiqcha narsadir. Bunday shaxslarda mehronlik, beg‘irah-shafqat, achinish, qayg‘urish, faxrlanish tuyg‘ulari bo‘lmaydi.



Ayrimlar “olomon madaniyati”, “bozor ma’rifati”, ma’naviyat tanqisligi kabi noxush masalalar haqida mustaqillik arafasida gapirish shartimidi deb o‘ylashi mumkin. Qat’iy fikrimizcha, gapirish, bu haqda bong urish lozim. Gap shundaki, har qanday yangi narsa, jumladan, “olomon ma’naviyati” avvalboshda o‘z ohanrabosi bilan barchani o‘ziga tortadi. E’tiqodli sust, milliy qadriyatlarimizdan xabari kam ayrim yoshlar esa o‘sha mazmunsiz, ma’naviyatsizlikni targ‘ib qiluvchi “g‘oyalar” oldida darrov taslim bo‘ladi.

Keling, fikrimiz to‘g‘riligini isbotlash uchun yana mustabid tuzum tomonidan tarbiya sohasida amalga oshirilgan “islohotlar” haqida fikrlashsak. O‘sha davrda axloq mutlaqo siyosiyashtirildi. Qadriyatlar tizimidagi siyosiy-g‘oyaviy va axloqiy qadriyatlar ko‘shib yuborildi. Shuning uchun bu davrdagi eng asosiy shior “Kommunizm g‘alabasi uchun xizmat qiladigan barcha narsalar — qadriyat”dan iborat edi.

Mustabid tuzum o‘zbek xalqi axloqiy qadriyatlarini qatag‘on qilish, ayniqsa, millatni vatnparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orishga xizmat qiladigan ma’naviy omillarni cheklashga alohida o‘rin berdi. Qadimiy axloqiy qadriyatlar, milliy g‘urur va xalqchil g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan, necha ming-minglab misralarni,

Ayniqsa, yuqorida qayd etganimizdek, bugungi dunyo barchamizdan siyosiy-mafkuraviy jihatdan hushyor bo‘lish, tevarak-atrofimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarni teran tahlil qilish va ulardan saboq chiqarishni talab etmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, mustaqilligimizning taqdiri, davlat va millat taraqqiyoti, istiqboldagi barcha strategik maqsadlarimiz natijasi ma’naviyat va ma’rifat borasidagi siyosatimiz va uning qay darajada amalga oshishiga bog‘liq. Biroq, bir tomondan, milliy ma’naviyatimizga mustabid tuzum davrida yetkazilgan ziyon-zahmatlar, boshqa tomondan, bugungi dolg‘ali kunlarda tobora kuchayib borayotgan mafkuraviy kurashlar, odamlar ongi, tafakkurini zaharlashdan manfaatdor kuchlarning harakatlari zamonaviy jamiyatni yanada kuchli xavf-xatarga qo‘ymoqda.

Shu o‘rinda ma’naviy hayotdagi turbulentlik hodisasi haqida ayrim fikrlarni bildirishni ma’qul ko‘rdik. Turbulentlik hodisasi ko‘proq aniq fanlar — fizika, kimyo sohalariga tegishli bo‘lsa-da, bugungi kunda mazkur hodisani ma’naviyat, tarbiya borasida ham qo‘llashni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Turbulentlik lotinchada jo‘shqinlik, tartibsizlikni anglatadi. Hozirgi zamonda tarbiya, ma’naviyat bo‘yicha jarayonlarda ana shu turbulentlik holatini har qadamda uchratsa bo‘ladi.

Biroq millat va davlat taqdirini o‘z siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan deb biluvchi har qanday siyosiy kuch mamlakat ma’naviy hayotini o‘z-o‘zidan bo‘laveradigan hodisa sifatida talqin qilishi mumkin emas. Bu borada yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni alohida qayd etish lozim.

Masalan, biz yuqorida ta’kidlagan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yagona tizim asosida olib borilayotgani, davlatimiz rahbarining jamiyat ijtimoiy-ma’naviy barqarorligini ta’minlashdagi muhim o‘rni, joylarda tarbiya masalasiga barcha katta va kichik rahbarlarning mutasaddi etib belgilanishi — bularning bari yurtimizda ushbu masalalar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganidan darak beradi.

Afsuski, ma’naviyatdagi turbulentlik holatining ayrim ko‘rinishlari bizda ham uchramoqda. Masalan, ba’zi ijtimoiy tarmoqlarda davlatning tarbiya, ma’naviyat sohalaridagi faoliyatini shaxs erkinligiga tajovuz sifatida baholash uchrayapti. Bu davlatning tarbiya borasidagi faoliyatini inkor etish bilan barobar. O‘zbek milliy qadriyatlari orasida jamoaviylik masalasi har doim ustuvor ahamiyat kasb etib kelgan. Shaxs tarbiyasidagi individualizm har doim insonning jamiyatdan begonalashuviga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tarbiya masalasiga jamiyat, jamoatchilik muammosi sifatida qaralgan. Jamoatchilikning tarbiya, ma’naviyat masalalariga kuchli e’tibori bu jarayondagi turbulentlik holatining oldini oladi. Tartibsiz tarbiya jamiyatning kushandasidir.

Tartibsiz tarbiyani, turbulentlik holatidagi ma’naviyatni tartibga keltiruvchi omillar juda ko‘p. Shulardan eng muhimi, nazarimizda, ideal shaxs va jamiyatga intilish masalasidir. Yaqinda bir ilmiy anjumanda ana shu masala xususida fikr bildirib, ideal, ayniqsa, ma’naviy ideal masalasi bugungi globallashuv davrida insoniyatni turli xavf-xatarlardan qutqarib qoluvchi muhim omil ekanini ta’kidladim. Biroq anjuman ishtirokchilaridan biri “Ideal jamiyat va shaxs to‘g‘risidagi fikrlar bugun ortiqcha, bunday “qizil gaplar” odamlarni real hayotdan qutqashitiradi”, dedi.

Aksariyat ishtirokchilar ma’naviyat va tarbiyada ideal jamiyat va shaxs masalasi hech qachon eskirmaydigan, jamiyat a’zolarini taraqqiyot, barkamollikka, ijtimoiy hamkorlikka, adolatli jamiyatga undaydigan g‘oya va mafkuralar majmuasi ekanini qayd etdi. Shu ma’noda, ideal shaxs va jamiyat to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarimiz taraqqiyotga intilishimizni tartibga soladi, ruhlandıradi, amaliy faoliyatimizga ma’no-mazmun beradi, tarbiya jarayonidagi turbulentlikni samarali o‘zanga soladi. Global tahdidlardan himoya qiladigan yagona omil bilim va ma’naviyat ekanini unutmamaklana, ideal jamiyat sari barcha intilishlarimiz real natija beradi.

Ma’naviyat haqida fikrlashar ekanimiz, shubhasiz, bugun insoniyatga tahdid solib turgan xatarlar to‘g‘risida gapirmaslik mumkin emas. Insoniyatga, alohida olingan millat va davlatga bo‘ladigan xatarlar ichida eng xavfli lari harbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy, mafkuraviy, ma’naviy, madaniy, milliy mazmunga ega xatarlardir. Nazarimizda, bugun insoniyatga, jumladan, mamlakatimiz taqdiriga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan xatarlar sirasida iqtisodiy,

ijtimoiy, milliy, mafkuraviy xatarlarga alohida diqqat qilish kerak.

Masalan, bugungi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy xatar eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Odamlar ijtimoiy ongida moddiyatning eng ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani tufayli “Hamma narsani pul hal qiladi” degan aqida yoshlarning aksariyat qismida ularning hayotiy tamoyiliga aylanmoqda. Natijada e’tiqodi sust ayrim yoshlarimizda barcha narsalarni pul, moddiyat bilan o‘lchash ko‘nikmasi shakllanyapti. Buning eng xavfli jihati esa undaylarning millat, jamiyat va davlat manfaatlaridan tobora uzoqlashib borishi, milliy o‘zlik, ma’naviy qadriyatlarimiz, ming yillar davomida shakllangan tarbiya va ma’naviyat tizimimizni ochiqdan ochiq inkor etishida ko‘rinmoqda. Bunday xatarlarning oldini olishning yagona yo‘li esa ma’naviyatga beriladigan e’tibor bilan bog‘liq.

Yana bir muhim xatar to‘g‘risida gapirmasak bo‘lmaydi. Bu bugungi mavjud vaziyat tufayli sodir bo‘layotgan ijtimoiy xatarlar. Bunday xatar ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmaydi. U har bir millat va davlatning ichki siyosatidagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlarning jamiyat a’zolariga ta’siri bilan baholalanadi. Bugun yangi O‘zbekistonni barpo etish, ma’rifatli davlat qurish, bu jarayonda xalqimizning bevosita ishtiroki tufayli ijtimoiy xatarning xavfi tobora kamayib bormoqda. Biroq dunyodagi o‘zgarishlar, jahon axborot tizimining yurtimizga bevosita ta’siri tafakkur tarzi sayoz ayrim yoshlarni domiga tortyapti. Bu esa o‘sha yoshlarning jamiyatdan begonalashuvi, milliy-ma’naviy qadriyatlarini nazar-pisand qilmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda.

Bizni, butun yangi O‘zbekistonni xavotirga solayotgan xatarlardan yana biri — milliy mazmundagi xatar. Gap shundaki, bugungi dunyoda “umumiyy uy”, “dunyo odami”, “yagona xalq”, “ustuvor maqsad”, “geonizm — zavq ma’naviyati”, “yangi narsa eskisidan yaxshiroq” kabi g‘oyalar asosida milliy o‘zlikni yo‘qotishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda. Bu jarayonda globallashuvning salbiy oqibatlari ham juda katta. To‘g‘ri, globallashuv jarayonida umum-insoniy muammolarni hal etish, insoniyatni turli xavflardan ogoh etish va qutqarish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo globallashuvning qator salbiy ko‘rinishlari ham borki, ular to‘g‘risida gapirmaslik mumkin emas.

Masalan, globallashuv endi to‘xtamaydigan, har qanday voqea-hodisaga ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydigan hodisaga aylanib bo‘ladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, globallashuv har qanday millatni o‘zlikdan judo qiladigan, milliy qadriyatlarini chilparchin qilib tashlaydigan, pivordnat natijada davlatlar va millatlar degan buyuk qadriyatlarini yo‘q qilishga olib boradigan yo‘ldir. Bu jarayon “jahon kishisi” deb nomlanadigan g‘ayridiodyti, yolg‘on g‘oyalar asosida kechmoqda. Bunday xatarlardan qutulishning yagona yo‘li — ma’naviyat va ma’rifat.

Shuning uchun ham davlatimiz rahbari har bir yig‘ilish, aholi bilan uchrashuvlarda ma’naviyat, uning beqiyos kuchi haqida kuyinib gapirishdan charchamayapti. Haqiqatan, bugungi dunyo tahdidlariga faqat tarbiya, ma’naviyat bilangina qarshi tura olamiz. Millatni turli tahdid va xatarlardan asrab qolish, mamlakatni yanada taraqqiy ettirish, mustahkam ijtimoiy-ma’naviy muhiti yaratishda ma’naviyat kabi o‘lmas fenomen hodisaning ahamiyati tobora kengayib va chuqurlashib boraveradi. Bu haqda gapirar ekan, Prezidentimiz bunday deydi: “**Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo‘ygan bugungi kunda xalqimiz, ayniqsa, farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin, farovon hayotning qadriga yetish tuyg‘ularini kuchaytirishda ma’naviy-ma’rifiy sohalar vakillari, madaniyat va san’at namoyandalari hamda ijod ahlining o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Biz bunday sharafli yo‘lda ularni o‘zimizga eng yaqin ko‘makchi va maslakdosh deb bilib, ularning yordami va qo‘llab-quvvatlashiga tayanamiz.**”

Darhaqiqat, muazzam, biz uchun g‘oyat muqaddas mustaqillik bayrami arafasida jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitini mustahkamlaydigan, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlaydigan, odamlarimizga samimiylik, insonparvarlik g‘oyalarni singdiradigan, turli global xavf-xatarlar, mafkuraviy tahdidlardan asraydigan yagona kuch ma’naviyatdir. Ma’naviyatimizning boyligi esa millat va davlat taraqqiyotining kafolatidir.

4

2025-yil 13-avgust 164-son

www.yuz.uz

f

yuz.uznews

uz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

Tashabbuslar qanotida

Taraqqiyot odimlari

JIZZAXDA IQTISODIY FAOLLIK MANZARALARI

Yaqinda saylovchilar bilan uchrashish, aholi muammolarini oʻrganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish maqsadida Jizzax viloyatiga xizmat safariga bordik.

Jizzax viloyati iqtisodiy jihatdan rivojlanib bormoqda. Bir vaqlar agrar sohaga ixtisoslashgan viloyatda bugun zamonaviy sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, yangilari qurilyapti. Jizzaxda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar koʻplaming ogʻirini yengil, uzogʻini yaqin qilmoqda. Turizm rivojlanmoqda. Ayniqsa, Zomin, Baxmal, Forish kabi togʻli hududlar nafaqat yurtdoshlarimiz, balki minglab xorijlik mehmonlarning sevimli maskaniga aylangan. Viloyat va tuman markazlarida bunyod etilayotgan yangidan yangi turar joylar, ijtimoiy soha obyektlari, ishlab chiqarish korxonalari, ravon yoʻllar, hech shubhasiz, yangi Oʻzbekistondagi islohotlar samarasidir.

Misol uchun, viloyatning 2016-yilgi yalpi hududiy mahsuloti 7,7 trillionni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yili 43,1 trillion soʻmga yetgan. Shu raqamlardagi katta farqdan ham soʻnggi yillardagi islohotlar natijasini anglash mumkin.

2025-yilning birinchi yarim yilligida Jizzax viloyatida sanoat, servis va qishloq xoʻjaligi sohalarida jami 200 ta loyiha ishga tushirildi. Ular doirasida viloyatga 662 million AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilindi. Investitsiyalarning bunday salmoqli hajmda oʻzlashtirilishi hududda iqtisodiy faollik oshganidan dalolat beradi. Bu sarmoya ishlab chiqarish hajmini oshirish, texnologik yangilanishlarni jadallashtirish, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda umumiy iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda muhim rol oʻynamoqda. Yil oxirigacha 2 milliard dollar sarmoya jalb etish, eksporti 285 millionga yetkazish va 168 ming aholi bandligini taʼminlash rejalashtirilgan.

Eng muhimi, bunday ulkan iqtisodiy yuksalishlar aholi hayotida, dunyoqarashida ham yaqqol namoyon boʻlmoqda. Aholi turmush sharoitini oʻrganib, ular bilan suhbatlashib, bunga shaxsan amin boʻldim.

Jizzax shahri kasbiy koʻnikmalar markazi direktori Sherzod Toshpoʻlatov Prezidentimizning Zomin texnoparkiga tashrifidan soʻng elektrotexnika sohasi boʻyicha oʻqishga talab oshganini aytdi.

Ha, hali tamal toshi qoʻyilganiga endi bir yildan oshgan mazkur texnoparkda hozir yuzlab, kelajakda minglab yurtdoshlarimiz, yoshlar ish bilan taʼminlanadi.

Otabek MUSURMONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

“Zomin texnopark” maxsus sanoat zonasida umumiy qiymati 1 milliard 200 million dollar boʻlgan 31 ta loyiha rejalashtirilgan. Ular toʻliq faoliyat yuritga boshlashi natijasida 5 mingdan ortiq fuqaro doimiy ish oʻmiga ega boʻladi. Bu esa Zomin texnoparkining ahamiyati va ulkan salohiyatini ochiq-oydin namoyon etadi.

Eng quvonarlisi, mazkur zonada noutbuk, planshet, server, router kabi zamonaviy elektron mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan taʼminlabgina qolmay, Oʻzbekistonning xalqaro iqtisodiy maydonidagi mavqegini mustahkamlaydi. Jumladan, “Harvard Growth Lab”ning iqtisodiy murakkablik reytingida yurtimizni yuqori oʻrinlarga olib chiqishda bu tashabbuslar muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Jizzax viloyatida boshlanadigan yangi loyihalar kelgusida Oʻzbekistonning eksport portfelidagi mahsulotlar turini oshirishga va jahon bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishishga xizmat qiladi.

Jizzax viloyatida bugun elektron muhandislik va mashinasozlik kabi yuqori qoʻshimcha qiymat yaratadigan tarmoqlarga resurslar yoʻnaltirilayapti. Shu orqali iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish jadal surʼatda davom ettirilmoqda. Jumladan, milliy brendlar ostida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali Oʻzbekistonda mintaqaviy elektrotexnika xabiga aylantirishda Jizzax viloyati muhim oʻrin tutadi.

Yangi ishlab chiqarish obyektlari, zamonaviy zavodlar va xizmat koʻrsatish

markazlari ishga tushirilishi natijasida hududda yangi ish oʻrinlari yaratilmoqda. Bu, oʻz navbatida, viloyatda mavjud dolzarb muammolardan biri boʻlgan ishsizlikni sezilarli kamaytirish, aholi bandligini taʼminlash va daromadlar darajasini oshirish imkonini beradi. Shuningdek, viloyatga investitsiya oqimi ortishi bilan birga ilgʻor xorijiy texnologiyalar ham kirib kelmokda. Bunday texnologik yangilanishlar ishlab chiqarish samaradorligini taʼminlash bilan birga mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilaydi hamda ularni xorijiy bozorga olib chiqish imkonini kengaytiradi.

Investitsiyalar faqat iqtisodiy koʻrsatkichlarni yaxshilash emas, balki moliyaviy barqarorlikni taʼminlashda ham muhim omil. Jumladan, yangi ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish faoliyatlarini natijasida viloyat byudjetiga qoʻshimcha soliq tushumlari shakllanmoqda. Bu esa muhim mahalliy ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga zamin yaratadi.

Ushbu ijobiy iqtisodiy surʼatlarni saqlab qolish va islohotlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida Jizzax viloyatida “Islohotlar shtabi” tashkil etildi. Uning vositasida islohotlarni tizimli, tezkor va nazorat ostida amalga oshirishga xizmat qiladigan samarali boshqaruv mexanizmi yaratilmoqda. Shtab orqali islohotlar aniq “yoʻl xaritasi” asosida rejalashtiriladi, ularning bajarilish muddati, masʼul ijrochilari va kutilayotgan natijalari belgilab olindi. Shuningdek, ushbu shtab tashabbuslarni joyida muvofiqlashtirish, real muammolarni tezkor hal etish va ijro intizomini kuchaytirish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Umuman olganda, Jizzax viloyatida kuzatilayotgan iqtisodiy yuksalish, yirik hajmdagi investitsiya oqimi va islohotlar boshqaruvini mustahkamlovchi mexanizmlar joriy qilinishi hududiy taraqqiyotda yangi bosqichni boshlab beradi. Bu jarayonlar nafaqat hozirgi iqtisodiy koʻrsatkichlarni yaxshilaydi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun ham muhim zamin yaratadi.

NIGOH

YANGI OʻZBEKISTON

uz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

KONIMEX

hayotbaxsh islohotlar maskaniga aylanib bormoqda

Navoiy viloyati hududida joylashgan bepoyon Qizilqum sahrosini kezarkansiz, u yerdagi shahar ovullarda ham bugungi jadal islohotlar nafasini tuyasiz. “Qizilqum darvozasi” deya taʼriflanadigan Konimex tumanida hozir 40 ming kishi istiqomat qiladi. Tuman haqida soʻz yuritganda, asosiy urgʻu endi uning choʻl ekaniga emas, balki hududda yanada keng imkoniyatlar yaratilib, rivojlanayotganiga qaratilmoqda. Zero, bu yerdagi oʻzgarishlar tufayli aholi uchun yangi hayot va imkoniyatlar eshigi ochilayotir. Qishloq va ovullar ravon yoʻllar bilan bogʻlanmoqda, yangi taʼlim va tibbiyot muassasalari qurilyapti, mavjudlari taʼmirlanmoqda. Bu esa aholi farovonlashishi bilan bir qatorda ijtimoiy sohalar va mahalliy iqtisodiyot rivojiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Tumanning asosiy drayverlaridan biri — chorvachilik. Bugun mazkur sohada ham zamonaviy yondashuvlar joriy etilyapti. Intensiv chorvachilik klasterlari, mahsulotni qayta ishlash sexlari, logistika va eksport imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, kichik biznes va hunarmandchilikni qoʻllab-quvvatlash orqali aholi bandligi taʼminlanayapti. Soʻnggi yillarda tumanda kichik biznes subyektlariga yaratilayotgan shart-sharoitlar samarasi oʻlaroq, xizmat koʻrsatish sohasi ham kengayayotir. Yoshlar,

barchasida oʻtgan yillarga nisbatan oʻsish kuzatilgan. Hududdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tuman iqtisodiyotidagi ulushi ayni vaqtda oʻrtacha 45 foiz hamda eksportdagi ulushi 80 foizga yetdi.

Konimex tumanidagi har bir mahalla va ovul oʻziga xos urf-odatlari va mehnatsevar odamlari bilan ajralib turadi. Aholi manzillarida milliy qadriyatlar va zamonaviy hayot tarzi uygʻunlashgani namoyon boʻladi. Mehmonnavozlik, samimiyat

xotin-qizlar uchun yangi ish oʻrinlari, tadbirkorlik loyihalari va innovatsion yondashuvlar orqali aholi daromadi va turmush darajasi yaxshilanayotgani ham eʼtiborga molik.

Chorvachilik bilan shugʻullanuvchi bir guruh tadbirkorlar Konimex tumani hokimi rahbarligida Moʻgʻulistonda xizmat safarida boʻlib qaytgan edi. Jarayonda goʻsht va yung yetishtirish boʻyicha hamkorlik yoʻliga qoʻyilib, qator loyihalar borasida kelishuvga erishildi.

Ushbu hamkorlikning birinchi bosqichida Konimex tumaniga bayat zotli 1000 boshga yaqin qoʻy olib kelindi. Tirik vazni 70-80, qoʻchqorlariniki esa 100-120 kilogramga yetadi. Goʻsht chiqimi esa tirik vazniga nisbatan 60 foizni tashkil etadi. Ular tuman yaylovlariga va iqlim sharoitiga tez moslashuvchan boʻlib, yaylovlarda samarali foydalanish orqali chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga yangi ish oʻrinlari ochilishiga xizmat qiladi.

Chorvani toʻgʻri va tartibli boqish maqsadida quvvatli, dagʻal ozuqalar zaxirasi yaratilib, veterinariya-sanitariya choralar koʻrilgan, tajribali mutaxassislar, soha olimlari birlashtirildi. Chorvani olib kelish jarayoni davom etmoqda. Hozir qoʻylar soni 6000 boshga yaqinlashdi. Kelgusida ularni 50 mingtaga yetkazish rejalashtirilgan.

— Tumanda joriy yilning oʻtgan davrida qariyb 500 milliard soʻmlik sanoat, 550 milliard soʻmlikdan ziyod qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi, — deydi Konimex tumani hokimining birinchi oʻrinbosari Eldor Hazratqulov. — Shuningdek, 100 milliard soʻmlikdan ortiq qurilish ishlari bajarildi. Xizmatlar qiymati 220, eksportniki 7 milliard soʻmdan koʻproqni tashkil etdi. Bu yoʻnalishlarning

va bagʻrikenglik aholi hayot tarziga singib ketgan. Har bir hududda oʻziga xos madaniy qadriyatlar saqlanishi bilan birga chorvachilik, hunarmandchilik va kichik biznes hamohang yuksalayotgani mahalla, ovullarning taraqqiyot va maʼnaviyat maskaniga aylanib borayotganidan darak beradi. Tuman markazidagi Shoʻrtepa, Navroʻz va Birlik mahallalarida yashayotgan qator namunali oilalar bor. Ularning saʼy-harakati nafaqat roʻzgʻori farovonligiga, balki hudud rivojiga ham munosib xizmat qilmoqda.

Bugun tumanda aholining goʻsht mahsulotlariga talabini qoplash, kambagʻallikni qisqartirish, ishsiz aholi bandligini taʼminlash maqsadida mahallalar hududidan oʻtgan zovur va kollektorlarda oʻrdak boqish tashabbusi ilgari surilmoqda. Shuningdek, asalarichilik tarmogʻiga yoʻnaltirilayotgan subsidiyalari ham samara beryapti. El dasturxoni obodligini taʼminlashga hissa qoʻshayotgan bunday oilalar safi tobora kengayayotgani yanada quvonarli.

— Asalarichilikni tumush oʻrtogʻim bilan birga boshlagan edik, — deydi Shoʻrtepa mahallasida istiqomat qiluvchi Dilafroz Haydarova. — U kishi olamdan oʻtgandan keyin ham oilamizni doimiy daromad bilan taʼminlash maqsadida asalarichilikni davom ettiryapman. Hozir 40 quti asalari parvarishlayapman. Kelgusida ular sonini yanada koʻpaytirishni rejalashtirganman. Shu maqsadda ayni vaqtda bankdan kredit oldim va ishimizni rivojlantirish boʻyicha zarur sharoit yaratyapmiz. Buyurtmachilarimiz bor. Har yili ularga asal yetkazib beramiz. Daromadimiz yaxshi. Shu ishimiz ortidan farzandlarimni oʻqitayapman. Muhimi, roʻzgʻorimiz toʻkis boʻlishiga harakat qilyapmiz.

Bandlik

Bugun hududlarning iqtisodiy rivojida Sayxunobod, Zarbdor, Gʻijduvon va Yuchi tajribalarining oʻrni katta boʻlyapti. Xususan, Surxondaryo viloyatida ham Uychi tumani tajribasi asosida aholining ijtimoiy himoyatga muhtoj, kambagʻal qatlamini qisqartirish, ishsiz va norasmiy band boʻlgan yoshlarni ish oʻrinlariga joylashtirish borasida keng koʻlamli ishlar bajarilmoqda. Dastlab aholining barcha qatlami xatlovdan oʻtkazildi. Shu asosda ishsiz, norasmiy band boʻlgan fuqarolar roʻyxati shakllantirildi. Shundan soʻng koʻplab ishsizlar doimiy ishga joylashtirilmoqda. Norasmiy daromadga ega fuqarolarni soliq. uz platformasidan oʻtkazish hisobiga kambagʻallik darajasi sezilarli kamaymoqda.

— Uychi tajribasi asosida kambagʻallik darajasi yuqori boʻlgan mahallalar tanlab olindi. Ulardagi ijtimoiy reyvestra turgan, ammo mehnatga layoqatli, rasmiy daromadga ega boʻlmagan aholi qatlamini daromadli qilish maqsadida manzilli ishlar qilindi. Bu esa natijasini koʻrsataypti, — deydi bank xodimi

SURXONDARYODA UYCHI TAJRIBASI

Normuhammad Doʻrmonov. — Uychi tajribasi oʻzi nima degan savolga bunday javob beramiz: tadbirkorlik qilish istagidagi aholi bilan manzilli ishlab uchun hududlarga tuman hokimliklari birlashtirilgan. Bunda hokim infratuzilma masalasini hal qiladi. Tijorat banklari esa moliyaviy koʻmak beradi. Mutasaddilarga tadbirkorlar bilan manzilli ishlab uchun yil yakunigacha aholi bandligini taʼminlash yuklatilgan.

Surxondaryoda 200 mahalla bankiri va 724 yordamchi agent faoliyati yoʻliga qoʻyilgan. Bu Uychi tajribasi asosidagi ishlarning viloyatdagi samaradorligini oshirishga xizmat qilaypti. Tahlil etilsa, oʻtgan yilda vohada bank mijozlari bilan 596 marta uchrashuv oʻtkazilgan. Natijada 6010 mijozning murojaati ijobiy hal etilgan.

Bu ishlar samarasini Denov tumani misolida ham koʻrish mumkin. Tumanda voha aholisining oʻrtadan bir qismi yashaydi. Ushbu misolning oʻziyoq hududda aholi bandligini taʼminlash oʻziga yarasha murakkab va muhim vazifa ekanini koʻrsatadi. Shu bois, hududda mazkur yoʻnalishda kompleks ishlar bajarilmoqda. Jumladan, Uychi tajribasi asosida Denovni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, migratsiya va kambagʻallikni keskin qisqartirish, aholi daromadini oshirish hamda tomorqadan samarali foydalanishni tashkil etish choralarini

OMMALASHMOQDA

koʻrilyapti. Tajriba asosida tumanda drayver va startap loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, yaqinda hududdagi tadbirkorlardan biri 1,2 milliard soʻmlik kredit oldi hamda penoplast ishlab chiqarish zavodini ishga tushirdi. Natijada 10 ta yangi ish oʻrni ochildi. Shuningdek, tumandagi Bahoriston mahallasida umumiy qiymati 150 million soʻm boʻlgan tadbirkorlik subyekti ish boshladi.

— Mahallamiz aholisining qoliqli nonga ehtiyojini taʼminlash maqsadida oilaviy tadbirkorlikni yoʻliga qoʻyidik. Murojaatimizga javoban bank tomonidan 100 million soʻm kredit berildi. Shu asosda qoliqli non ishlab chiqara boshladik, — deydi tadbirkor Otabek Eshqobilov. — Korxonamizda yiliga 360 tonna un qayta ishlandi. Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni xorijiy texnologiya asosida bajariladi. Kelgusida faoliyatimizni yanada kengaytirmoqchimiz.

Denovda boʻlganlar yaxshi biladi: “Qoʻzichoqli” yoshlar va tadbirkorlik sanoat

hududi keyingi yillardagi yirik loyihalardan biri boʻldi. Bu hududdagi umumiy qiymati 5 milliard soʻmdan ziyod korxonada zamonaviy texnologiya asosida qogʻoz quti ishlab chiqarilmoqda. Subyektning faoliyati ham qoʻllab-quvvatlanib, tijorat banki krediti berildi. Mazkur sanoat zonasida tashabbuskor tadbirkor tomonidan gʻilof ishlab chiqarish tarmogʻi ham ochildi. Korxonada mehnat qilayotgan mahalliy xotin-qizlarning aksariyati ijtimoiy daftarlarda roʻyxatda turadi. Ular har kuni buyurtma asosida 100 donagacha mahsulot ishlab chiqaraypti. Demak, daromad ham shunga yarasha.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi tashabbusi bilan Denov xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tashkil etilgan. Milliy hunarmandchilik namunalarni ishlab chiqarishga moslashtirilgan bu oilaviy korxonaga 100 million soʻm kredit ajratildi.

— Korxonamizda ishlarni 3 bosqichda tashkil qilish belgilangan. Shu asosda nogironligi boʻlgan xotin-qizlarning bandligi

taʼminlanaypti. Hozir ishsiz, uyda oʻtirgan 350 ayol-qiz faoliyatga keng jalb etilib, kasanachilik tartibida tikuvchilik bilan band qilingan, — deydi tadbirkor Nargiza Toshboʻtayeva. — Korxonamiz ishchilariga ish hajmiga qarab 700 ming soʻmdan 1 million soʻmgacha haq toʻlanadi. Toʻgʻrisini aytish kerak, “Uychi

tajribasi” oilalami tadbirkorlikka undab, kambagʻallikni qisqartirish va aholi bandligini taʼminlashdek muhim masalalar yechimida qoʻl kelyapti.

Tumanda “Uychi tumani” tajribasini joriy etish borasidagi ishlarni eshik-roʻm ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “Denov Durдона ABZ”, mebel ishlab chiqaradigan “Gold

mebel”, gips mahsulotlari va sunʼiy gul bezaklar tayyorlovchi “Mega master Denov” korxonalari faoliyati misolida ham kuzatish mumkin.

Sarvar TOʻRAYEV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



Zamon bilan hamnafas

TIBBIYOTDAGI O‘ZGARISHLAR

YANGI AVLOD MUTAXASSISLARINI
TAYYORLASHNING ISHONCHLI POYDEVORIShuhrat BOYMURODOV,
Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori

Boshlanishi 1-betda

Huquqiy asos sifatida 35 ta oliy ta’lim muassasiga moliyaviy va akademik mustaqillik berilgani tizimda tashabbus va erkinlik muhitini yaratdi. Bozor iqtisodiyoti talablariga mos kadrlar tayyorlash, innovatsion ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish va milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga integratsiya qilish jarayoni jadallashdi. Natijada oliyog‘ohlar o‘z rivojlanish strategiyalarini mustaqil belgilash, moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va mehnat bozorida talab yuqori yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Yig‘ilishda to‘plangan tajriba asosida bitiruvchilar bandligini ta’minlashda yangi qoidalarni joriy etish taklifi ilgari surildi. Xususan, endi “o‘zini o‘zi band qilgan” sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar ishga joylashganlar qatorida hisobga olinmaydi. Bu orqali ish bilan ta’minlash statistikasi real mehnat bozori talablariga yaqinlashadi, bitiruvchilarning bilim va ko‘nikmalari esa to‘g‘ridan to‘g‘ri ish joyida qo‘llanishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalari rektorlari vakolati kengaytirildi. Endi rektorlar o‘z o‘rinbosarlarini mustaqil tayinlaydi, nomzodlar esa oliyog‘oh kengashida yillik dasturlarini himoya qiladi. Shu bilan birga, rektorlar belgilangan moliyalashtirish va shtat birliklari doirasida professor-o‘qituvchilar hamda boshqaruv xodimlari tarkibini shakllantirish, yo‘nalish va ixtisoslikdan kelib chiqib, super kontrakt miqdorini tabaqalashgan tarzda belgilash huquqiga ega bo‘ladi.

Oliy ta’lim bo‘yicha o‘tkazilgan barcha yig‘ilishda yoshlarimiz hayoti, bilim olishi, akademik faoliyati doimo Prezidentimizning diqqat markazida turadi. Bu gal ham shunday bo‘ldi: abituriyentlar uchun yangi imkoniyat yaratilgani ma’lum qilindi. Gap shundaki, endi abituriyent o‘zi tanlagan beshta oliyog‘ohdan birortasiga kirish uchun yetarli ball to‘play olmasa, ammo uning natijalari boshqa oliyog‘ohdagi bo‘sh o‘ringa mos kelsa, o‘sha oliyog‘oh rektori uni kontrakt asosida o‘qishga qabul qilishi mumkin.

Bu tizim, ayniqsa, tibbiyot sohasida talab yuqori bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tibbiyotda har bir yillik qabul jarayoni ortida mamlakat sog‘liqni saqlash tizimining strategik ehtiyojlari yotadi. Qolaversa, chekka-chekka tumanlar, qishloq va ovullarga o‘z joyidan chiqqan malakali kadrlar tayyorlab berish imkoniyati tug‘iladi.

Yangi o‘quv yilidan oliy ta’lim tizimidagi mazkur islohotlar nafaqat iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga, balki tibbiyot, farmatsevtika va tibbiy muhandislik sohalarida xalqaro standartlarga mos, ilg‘or bilim hamda ko‘nikmaga ega mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatda sog‘liqni saqlash sifati va samaradorligini oshirish bilan birga milliy tibbiyot sanoatining innovatsion rivojlanish bosqichiga o‘tishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

“Yangi O‘zbekiston” universitetida samarali qo‘llanayotgan zamonaviy baholash tizimi barcha oliy ta’lim muassasalarida joriy etiladi. Mazkur tizim moliyalashtirish jarayonini natijaviylikka bog‘laydi va universitetlarning asosiy ko‘rsatkichlarini aniq mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Binobarin, bitiruvchilarning bandlik darajasiga 40 ball, ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tarmoq buyurtmalari va ishlanmalarni tijoriylashtirishga 30 ball, ilmiy salohiyat hamda xalqaro nufuzli jurnallarda maqolalar chop etilganlik holatiga 20 ball, mahalliy va xorijiy grantlarni jalb qilishga esa 10 ballgacha beriladi. Shu tariqa umumiy 100 ballik baholash tizimi orqali universitetlar faoliyati kompleks tahlil qilinadi.

Bu tizim oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni sifatini ta’minlash bilan birga amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, innovatsion yechimlarni hayotga tatbiq etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Universitetlar endi moliyalashtirishda ko‘proq ball to‘plash uchun mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, ilmiy ishlanmalarni

amaliyotga joriy etish va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etishga intiladi.

Yig‘ilishda, shuningdek, yaqin yillarda O‘zbekistonda qiymati 83 milliard dollarga teng yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgani ma’lum qilindi. Ushbu loyihalar natijasida faqat sanoat sohasining o‘zida 500 mingga yaqin yuqori malakali mutaxassissga ehtiyoj paydo bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Salmqli ko‘rsatkichlar tibbiyot sohasining salohiyati sezilarli darajada o‘shirini anglatadi. Shu bilan birga, mehnat bozorida yangi avlod kadrlariga talab keskin ortgani, oliy ta’lim muassasalari oldida bozor talablariga to‘liq javob beradigan, amaliy ko‘nikmalarga ega

Tizimda 316 nafar yoki 9,1 foiz bitiruvchi hozir rasman band emas. Ular tarkibi tahlil qilinganda 6,9 foizi (241 nafar bitiruvchi) dekret ta’tilida ekani, 0,8 foizi (28 nafari) magistratura yoki ordinaturaga hujjat topshirgani uchun ish boshlamagani, 1,3 foizi (47 nafari) esa xorijga stajirovka, ta’lim yoki ish maqsadida chiqqani aniqlangan.

mutaxassislar tayyorlash vazifasi turgani yorqin namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda tibbiyot ta’limidagi jadal islohotlarga bir oz to‘xtalsak. 2024/2025-o‘quv yilida Toshkent davlat tibbiyot universiteti bitiruvchilarining mehnat bozoridagi ishtiroki ortmoqda. Xususan, yakuniga yetgan o‘quv yilida universitetimizni 3504 talaba muvaffaqiyatli tamomladi. Ularning 3188 nafari, jumladan, 162 magistr ish bilan ta’minlangan. Umumiy bandlik

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

darajasi 90,9 foizni tashkil etgan. Ularning 58 foizi davlat tibbiyot muassasalarida, 32,9 foizi esa xususiy tibbiyot tashkilotlarida ish boshlagani sog‘liqni saqlashning barcha segmentini malakali kadrlar bilan ta’minlashda universal tayyorgarlik va bozorga moslashuvchanlik amaliyotidan dalolat beradi. Davlat granti bo‘yicha tahsil olganlar bilan to‘rt tomonlama, to‘lov-shartnoma asosida o‘qiganlar bilan esa uch tomonlama shartnomalar asosida mehnat munosabatlari rasmiylashtirilgani kadrlar taqchilligini tizimli bartaraf etishga hissa qo‘shmoqda.

Tizimda 316 nafar yoki 9,1 foiz bitiruvchi hozir rasman band emas. Ular tarkibi tahlil qilinganda 6,9 foizi (241 nafar bitiruvchi) dekret ta’tilida ekani, 0,8 foizi (28 nafari) magistratura yoki ordinaturaga hujjat topshirgani uchun ish boshlamagani, 1,3 foizi (47 nafari) esa xorijga stajirovka, ta’lim yoki ish maqsadida chiqqani aniqlangan.


Umumiy bitiruvchilarning 1259 nafari (36,8 foizi) magistratura va klinik ordinaturaga hujjat topshirgan, ularning ko‘pi ishlash bilan bir vaqtda o‘qish niyatida. Bu holat tibbiyot kadrlarining uzluksiz malaka oshirishi va ilmiy-amaliy tayyorgarligini chuqurlashtirish tendensiyasini yaqqol namoyon qiladi.

Prezidentimiz ilgari surgan ilmiy-innovatsion g‘oyalardan kelib chiqib, Toshkent tibbiyot universiteti o‘z tarkibida Sun‘iy intellekt laboratoriyasi markazini tashkil etish bo‘yicha aniq va amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqdi. Mazkur markazning asosiy maqsadi zamonaviy tibbiyotni ilg‘or raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirgan holda innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish uchun amaliy tadqiqot va tajriba maydonini yaratishdan iborat. Laboratoriyada magistrlar, doktorantlar va ilmiy izlanuvchilar ustoz-shogird an‘anasiga tayangan holda tibbiyot sohasida qo‘llanishi maqsad qilingan, shuningdek, mustaqil yaratilgan tibbiy qurilmalarni ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratish, sun‘iy intellekt sohasida startaplar va ilmiy loyihalarni moliyalashtirish

hamda kelgusida amaliyotga joriy qilish Toshkent tibbiyot universitetining ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi.

Sinov jarayoni muvaffaqiyatli yakunlangach, patent olish orqali ishlanmalar huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi va tizimli ishlab chiqarishga yo‘naltiriladi. Bunday tibbiyot texnik mahsulotlar nafaqat mahalliy sog‘liqni saqlash tizimining uskuna va texnologiyalarga ehtiyojini qoplash, balki xalqaro bozorga eksport qilish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Toshkent tibbiyot universitetida ham tibbiyot muhandisligiga ixtisoslashgan ilmiy-texnika texnoparki shakllanadi. An‘anaviy muhandislikdan farqli ravishda unda sohaga xos innovatsion yechimlarga ega tibbiy jihozlar, yuqori aniqlikdagi tibbiy uskunalar va raqamli diagnostika vositalari ishlab chiqiladi. Shu orqali tibbiyot ta’limining nazariy va amaliy tarkibi aniqlangan.



ilg‘or muhandislik ishlanmalari bilan boyiydi. Talabalar esa ta’lim jarayonida haqiqiy ishlab chiqarish va tadqiqot muhitida tajriba oltiradi. Natijada mamlakatimizda tibbiyot, muhandislik va sun‘iy intellekt sohalarini uyg‘un rivojlanadi. Innovatsion salohiyatga ega yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash uchun mustahkam

akademik va texnologik platforma yaratiladi. Bu esa O‘zbekistonning global ilmiy-texnik taraqqiyotdagi nufuzini mustahkamlaydi, tibbiyot sohasida yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportida yangi bozor eshiklarini ochadi.

Yig‘ilishda talabalarining bilim va amaliy ko‘nikmalari ikkinchi kursdan so‘ng ularni ishga jalb qilish istagida bo‘lgan investorlar ishtirokida yillik baholanishi ta’kidlandi. Yangicha baholash jarayoni natijalari bitiruvchilarning diplom ishiga hambevositata ‘sirk’o‘rsatadi. Chunki ular loyihada belgilangan aniq muammolarni yechish asosida ilmiy ish yoqlaydi. Natijada bitiruvchilarning malakasi ish beruvchi talabiga to‘liq mos keladi va ular kafolatli ravishda ishga joylashtiriladi. Yangi tizim mehnat munosabatlarida ham xususiy sektor uchun rag‘batlantiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. Xususan, bitiruvchini ishga olgan korxonalar tadbirkorlik faoliyatining milliy reytingida qo‘shimcha ball oladi. Bunday jarayon, albatta, xususiy sektordagi shifoxonalar va boshqa subyektlarga ham joriy qilinadi. Yig‘ilishda belgilab berilgan chora-tadbirlar, ayniqsa, tibbiyot ta’limining kelgusi rivojlanish istiqbollari uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Chunki tibbiy yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash jarayonida nazariy bilim va amaliy mashg‘ulotlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, talabalarining akademik salohiyatini real tibbiy amaliyot bilan uyg‘unlashtirish samaradorligini keskin oshiradi. Yangi tizimda yirik tibbiyot klasterlari va zamonaviy klinikalar uchun maxsus modullar joriy etilishi, tibbiy muhandislik, biotibbiyot uskunalar dizayni, raqamli diagnostika, klinik tadqiqotlar metodologiyasi kabi yo‘nalishlar zamonaviy sog‘liqni saqlash sohasining strategik ehtiyojlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri javob beradi.

Talabalar bu modullarni puxta o‘zlashtirgan holda ikkinchi kursdan so‘ng klinik bazalarda amaliy tayyorgarlikdan o‘tadi. Ularning bilim va ko‘nikmalari investorlar ishtirokida baholanadi. Diplom ishlarining mavzusi esa real tibbiyot loyihalaridagi aniq muammolarni hal qilishga yo‘naltiriladi. Bu orqali bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi bozor talablariga to‘liq mos keladi, ularning ishga joylashishi esa kafolatlanadi.

Shu bilan birga, milliy sog‘liqni saqlash tizimi ilg‘or texnologiya va innovatsion yechimlar asosida yangi bosqichga ko‘tariladi. Istiqbolda ushbu islohotlar natijasida tibbiyot ta’limi va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanib, “universitet — ilmiy innovatsion faoliyat — tijoratlashtirish — amaliyot” bog‘liqligi asosida yangi kadrlar tayyorlash ekotizimi shakllanadi. Bu ekotizim tibbiyot sohasida yuqori texnologiyali mahsulotlar yaratish, ularni mahalliy va xalqaro bozorga olib chiqish, tibbiyot muhandisligi texnoparklari faoliyatini kengaytirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Yig‘ilishda belgilangan chora-tadbirlar

YO‘L HARAKATI VA ILM-FAN INTEGRATSIYASI

Yuksalish pallas

Muhammadjon DADAMIRZAYEV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

Mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash va tashkiliy-huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, xususan, yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga alohida e’tibor qaratilib, harakat xavfsizligi nazoratini kuchaytirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz raisligida joriy yilning 9-iyul kuni yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokama qilindi, bu boradagi dolzarb vazifalar belgilandi. Shundan kelib chiqib, Namangan davlat texnika universitetida vazifalar ijrosi doirasida muayyan

ishlar qilinmoqda. Xususan, universitet olimlari shahar hokimligi bilan hamkorlikda Namangan shahrining transport va yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish bosh rejasini ishlab chiqmoqda.

Hamkorlik doirasida shaharda jamoat transporti samaradorligini oshirish, yangi yo‘nalishlar ishlab chiqish, ko‘chalarda tirbandlikni kamaytirish, velotransport yo‘laklarini ko‘paytirish, tartibsiz avtoturargohlarga barham berish, tumanlardan shaharga kirib kelish yo‘llarini kengaytirish, yer osti va yer usti piyodalar o‘tish joylarini tashkil etish, yo‘l yoqasidagi avtoturargohlar sonini ko‘paytirish, ko‘p qavatli avtoturargohlar

ochish, yo‘l o‘tkazgichlar barpo etish masalalari ko‘rib chiqilmoqda.

Chorsu bozori oldidagi aylanma harakatni tashkil etish, Sardoba bozori yonida yo‘l o‘tkazgich, bosh bekat qurish, Namangan shahri ko‘chalarda bir tomonlama harakatni tashkil etish, yangi avtobuslar uchun yo‘nalishlar tarmog‘i, maxsus yo‘l qismlari ushbu loyiha mahsulidir.

Universitet olimlari loyiha doirasida xorijlik mutaxassislar bilan yaqin aloqa o‘rnatgan. Germaniyaning “PTV Group”, Rossiyaning “Simetra” kompaniyalari shular jumlasidan. Vakillarimiz Sankt-Peterburgda “Simetra” kompaniyasi mas’ulidarlari bilan uchrashib, ushbu megapoliysda yo‘l-transport infratuzilmasi holatini o‘rganib qaytdi.

Shuningdek, Qozog‘istonning Olmaota shahrida “Transportni rejalashtirish va transport oqimlarini modellashtirish” mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada olimlarimiz tadqiqot ishlari bilan qatnashib, xalqaro tajribalar bilan o‘rtoqlashdi.

Universitetda “Farg‘ona vodiysida xavfsiz harakatlanishni ta’minlash: muammo va yechimlar” va “Transport va yo‘l muhandisligi istiqbollari va muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etildi. Tadbirlarda Germaniya, Belarus, Rossiya, Qirg‘iziston, Hindiston kabi mamlakatlarning yo‘l harakatini tashkil qilish va harakat xavfsizligi sohalarida faoliyat yuritayotgan yetakhi oliy ta’lim muassasalari va tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.



Olimlarimiz avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish, ekspluatatsiya qilish, korxonalaridagi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tadqiqotlar olib bormoqda. “Qamchiqavtoyoy” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi buyurtmasiga asosan, yer osti suvlari ta’sirida ta’mirlab bo‘lgan avtomobil yo‘llarini innovatsion usulda joriy ta’mirlash texnologiyasi ishlab chiqilgan. Hozir ushbu ilmiy tadqiqot natijasi Qamchiq dovonidagi tunnelarning bir qismida qo‘llandi.

Bugungi kunda Namangan davlat texnika universitetida transport vositalari muhandisligi, yo‘l muhandisligi va yo‘l harakatini tashkil etish kabi ta’lim yo‘nalishlarida 1500 dan ziyod

talaba tahsil olmoqda. Joriy yilda ulardan 570 nafari mustaqil hayotga yo‘llanma oldi.

Nazariy ta’limni amaliyot bilan rivojlantirish, amaldagi muammo va dolzarb masalalar yechimini topish maqsadida viloyatimiz hamda respublikamizdagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilib kelinmoqda.

“Qamchiqavtoyoy” ixtisoslashtirilgan yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi, Namangan viloyati Avtomobil yo‘llari hududiy boshqarmasi, Namangan viloyati IIB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi, Transport boshqarmasi, Avtomobil va suv transportida nazorat viloyat hududiy bo‘limi, “Vatanparvar”

tashkiloti Namangan viloyati kengashi, “Turon-95” mas’uliyati cheklangan jamiyati shular sirasidan. Talabalarimiz ishlab chiqarish amaliyotlarini ushbu korxona va tashkilotlarda o‘tab kelmog‘da.

Yo‘l harakatini tashkil etish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun viloyat IIB Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi va “Turon-95” mas’uliyati cheklangan jamiyati binolarida kafedra filiali tashkil etilib, o‘quv xonalari jihozlanib, mashg‘ulotlar o‘tkazilmoqda.

Yo‘l muhandisligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Namangan yo‘l xo‘jaligi xodimlari malakasini oshirish o‘quv markazi” DM binosida kafedra filiali tashkil etilib, mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yilgan.

Talabalarimiz Namangan shahri avtomobil yo‘llari va chorralarida tegishli idoralar xodimlari bilan birgalikda yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash tadbirlarida faol qatnashadi.

Yo‘l muhandisligi 3-bosqich bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari 2024-2025-o‘quv yilida “Qamchiqavtoyoy”da ikki oylik pulli amaliyot o‘tadi. Ushbu amaliyot davrida Jizzax shahridagi ko‘priq qurilishida bevosita ishtirok etdi.

Universitet professor-o‘qituvchilarning transport yo‘nalishidagi sa’y-harakatlari ham diqqatga sazovor. 2024-2025-o‘quv yilida ular tomonidan ushbu yo‘nalishdagi dolzarb masalalar yechimiga bag‘ishlangan bitta fan doktori va 4 ta falsafa doktori ilmiy darajalari himoya qilindi, 7 nafari dotsent va 1 nafari professor unvonini oldi. So‘nggi uch yilda avtomobil yo‘llari va harakat xavfsizligi bo‘yicha 5 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 6 ta monografiya chop etildi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar izchil davom etmoqda.

(“Soʻz latofati” kitobidan)

Bamisoli ulamo, fuzalo olim-u fozilning koʻplik shakli boʻlganidek, fuqaro ham faqirlar, yaʼni kambagʻallar, yoʻqsillar demakdir. Qoidaga koʻra fuqaroga ham “lar” qoʻshish xato boʻladi.



Ilmiy, mantiqiy nuqtayi nazardan ham, shaklu mazmun jihatdan ham bu huquqiy atama ustida turli bahslar yuradi.

Lekin zamon koʻzi bilan qarasak, fuqaro ham mehnatkash atamasi bilan qismatdosh ekan. Har ikki soʻz majruhlik, tubanlik, baxtsizlik chohidan ozod boʻlib, qadr-qimmat minbariga yuksalibdilar.

Shunday kamol topgan soʻzlarga duch kelganimda, oʻzbekning soʻzi — oʻzbekning oʻzi degan fikr koʻnglimdan oʻtadi.

Qadim zamonlarda Misr sultonlari asirlikka olib oʻz mulkiga aylantirgan, yaʼni mamluk qilgan askarlar vaqti kelib sultonlarni qulatgani, besh yuz yil Misrda hukm surgani tarixdan maʼlum.

Aslida, qul maʼnosini anglatuvchi mamluk Mamluklar saltanati boʻlib sohiliblik maqomini olgan edi.

Kelib chiqishi faqir boʻlgan fuqaroning bugungi sohiliblik maqomi ana shu tarixni eslatadi. Farq shuki, fuqaro hozirgi maqomga qadam-baqadam koʻtarilgan, avval xojaning fuqarosi, soʻng amir-u sultonning, bora-bora mamlakatning fuqarosi qadar yetib kelgan. Kambagʻallik maʼnosini yoʻqota borib, avval tobelik, soʻng muayyan jamoaga aʼzolik darajasiga yetgan. Mana endi Yurt fuqarosi deganda, biz Yurt egasini tushunamiz. Bu Erilish, bu metamorfozani koʻring! Tobelikning sohiliblikka aylanishiga nazar soling!

Navbatdagi savol: Fuqaro soʻziga “lar” qoʻshish mumkinmi? Asli maʼnosida, albatta, yoʻq! Lekin yangi maʼno kasb etgach mumkin ekan.

XIX asr boshlarida Qoʻqonda yashab ijod etgan oʻz zamonining malik ush-shuaroasi boʻlgan Fazliyning “Senga arz etar fuqarolaring” degan

“

XIX ASR BOSHLARIDA QOʻQONDA YASHAB IUOD ETGAN OʻZ ZAMONINING MALIK USH-SHUAROSI BOʻLGAN FAZLIYNING “SENGA ARZ ETAR FUQAROLARING” DEGAN SOʻZLARI BOR. BU GʻAZALGA SHOIR VOLA BOGʻLAGAN MUXAMMAS “BOZURGONIY” KUYIGA SOLIB, HALI-HAMON AYTLADI. DEMAK, BUNDAN IKKI ASR AVVAL FUQARO AMIRLIKKA TOBE INSON MAʼNOSIDA ISHLATILGAN VA FUQAROLAR SHAKLI HAM MAVJUD BOʻLGAN.



Madina va madaniyat

Madaniyat arabcha madina, yaʼni shahar soʻzidan olinganini bilamiz. Qadim zamonlardan sahroyi arablar badaviy, shaharliklar madaniy boʻlganlar. Oʻzbek tiliga ham ayni maʼnoda kirib kelgan. Aynon, hamma davr, hamma el-elatlarda shaharlar madaniyat oʻchogʻi hisoblangan. Biz bugun qishloq madaniyati deganda ham qishloqning shaharlashuvini tushunamiz.

Madina va madaniyat haqidagi oʻylar meni madaniyat oʻzi aslida nima degan savolga roʻbaroʻ qildi.

Madaniyat oq koʻylak kiyib, galstuk taqish, tavoze va mulozamatni oʻxshatishmi? Yoki risoladagidek uylar, estetik-axloqiy tushunchaga aylanib bormoqda. Madaniyat deganda, bugun biz koʻproq ichki madaniyatni koʻzda tutamiz, yuksak fazilatlar majmuini tushunamiz.

Agar bugun barcha insoniy fazilatlar ichida eng oliy, eng qadrli nima deb soʻrov oʻtkazilsa, ishonamanki, yer yuzi xalqlarining koʻpchiligi mehr-

shafqatni aytadi. Zotan, bu zamonda odamzod eng muhtoj boʻlgan, lekin juda kamyoib, jadal taraqqiyot barobarida koʻpayish oʻrniga ozayib ketayotgan tuygʻu mehr-shafqatdir.

Mabodo soʻrovni davom ettirib, mehr-shafqat qayerda koʻp va qayerda kam deya soʻralsa, hamma barobar shaharda kamroq, qishloqda koʻproq deb javob beradi. Xudbinlik va begonalik oshyoni boʻlib borayotgan megapolislarda istiqomat qiluvchilar oʻzlari shu soʻzni aytadilar.

Mehr-shafqat insoniy madaniyatning eng oliy darajasi ekan va bu noyob tuygʻu qishloqlarda makon tutgan ekan, madaniyat soʻzining madinaga egizligi qayoqda qoldi?

Shoirilar qishloqlarda tugʻiladilar, shaharlarda yashab oʻtadilar degan gap mashhur boʻlib ketgan. Lekin aslida shahardan chiqqan madaniyat oʻz maskanidan bosh olib qishloqqa koʻchib ketibdi, desak haqiqatga yaqin majoz boʻlar ekan...

Erkin VOHIDOV,
Oʻzbekiston xalq shoiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

MEZON

YANGI OʻZBEKISTON

Milliy kontent

SIFATLI SERIALLAR

xarajat emas, daromad manbayi

Yaqinda Ozarbayjonga xizmat safari bilan ketgan doʻstimdan ijtimoiy tarmoq orqali hol-ahvol soʻradim. U hammasi yaxshi ekanini aytib, kichkina videoxabar yubordi. Lavha Ozarbayjonning ARB telekanalida namoyish etilayotgan “Nomus” nomli oʻzbek serialidan parcha edi. Dunyoda shuncha mediamahsulot bor ekan, qardoshlarimiz — ozarbayjonlik teletomoshabinlar aynan bizning milliy serialimizni tomosha qilayotganidan gʻurur tuydim.

Milliy seriallar nafaqat millat madaniyati va mentalitetini targʻib qiluvchi, uning imijini koʻtaruvchi mediakontent, balki uning eksportidan moʻmaygina daromad qilish mumkin boʻlgan mahsulot hamdir. AQSH, Turkiya, Janubiy Koreya oʻz mediamahsulotlarini dunyo davlatlariga sotish orqali yaxshigina daromadga erishadi. Albatta, bu borada oʻzining kino sanoati shahri boʻlmish Gollivudga ega AQSH eng koʻp daromad koʻradigan davlat hisoblanadi. Ammo soʻnggi yillarda tarixiy, kriminal va melodramalari bilan Turkiya va Janubiy Koreya ham katta daromadga ega boʻlmoqda. Jumladan, Turkiya oʻtgan yili 200 davlatga 300 dan ortiq serial eksport qilib, 500 million dollar ishlagan boʻlsa, Janubiy Koreya 400 milliondan ziyod daromad koʻrdi.

Statistika maʼlumotlariga koʻra, dunyo miqyosida kino turizmi bozori qiymati 2024-yilda 61 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu koʻrsatkich 2025-yil soʻngiga qadar 66,2 milliard dollarga yetishi, yil sayin oʻsib borayotgan qiymat 2035-yilga borib 135 milliard dollarni tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Albatta, bu seriallarning barchasi ham sifatli yoki mentalitetimizga javob beradi deyishdan yiroqmiz. Umuman, seriallarning mazmun-mohiyati, ulardagi gʻoya, mafkurasi haqida emas, faqatgina seriallarning davlat iqtisodiyotiga keltiradigan foydasi, undan koʻriladigan moddiy manfaat haqida soʻz yuritmoqchimiz. Zero, seriallarning maʼnaviy manfaatlari haqida mutaxassislar, ustoz jurnalistlar koʻp va xoʻp yozgan.

Yuqorida keltirilgan raqamlar seriallar eksportidan keladigan sof foyda, xolos. Uning boshqa tarmoqlar rivojiga qoʻshgan hisssasi ham katta.

Turizm javohirlarining jonli namoyishi

Yuqorida sanab oʻtilganlar dunyo turizm sohasida ham yetakchi, oʻziga xos jozibasi, mavqei bor davlatlar sirasiga kiradi. Mediamahsulotlar esa sayyohlarni jalb



fursatda katta sakrash boʻldi, yaʼni sayyohlar soni 200 mingdan 600 mingga koʻtarildi.

Ulamning koʻpchiligi yaponiyaliklar edi, chunki bu serial Yaponiyada sevib tomosha qilindi. Keyinchalik mediamahsulot boshqa mintaqalarda ham oʻz tomoshabinlariga ega boʻldi va orolga ayni paytda yiliga 3 milliondan ortiq sayyoh keladi.

Dunyo boʻyicha eng koʻp tomosha qilingan seriallardan biri “Taxtlar oʻyini” besh-olti yil oldin namoyish etilgan boʻlsa-da, Xorvatiyaning u suratga olingan Dubrovnik shahri turizmi rivojiga hanuz katta hissa qoʻshib kelmoqda. Shaharga aynan serial sababli u suratga olingan davr — 2012-2015-yillarda 240 ming sayyoh tashrif buyurgan. Ular oʻtgan uch yil davomida turar joy, oziq-ovqat va esdalik sovgʻalar va boshqalarga taxminan 126 million yevro sarflagan.

Serial yakuni 2019-yilda ekranga chiqqan. Ammo oradan salkam olti yil oʻtgan boʻlsa-da, aynan serial taʼsirida hududga tashrif buyuruvchilar soni kamaygani yoʻq. Serialdan soʻng shaharga keluvchilar soni salkam 10 barobar oshgan.



Seriallar brendlar yaratadi va ommalashtiradi

Seriallar mamlakat iqtisodiy tarmoqlari orasida turizmdan keyingi oʻrinda toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojiga katta hissa qoʻshadi. Ammo bu qamrovni aniq misol va raqamlarda koʻrsatish mushkul. Tomoshabin borki, oʻzi sevgan serial qahramoniga oʻxshashga harakat qilishi rad etib boʻlmas haqiqat. Bu esa, birinchi navbatda, kiyinish uslubida namoyon boʻladi.

Yaqin oʻtmishda jamiyatimizda qaysi seriallar ommalashtirgan boʻlsa, ulardagi qahramonlarning kiyinish uslubini ham muayyan yosh toifalari orasida modaga aylanganini eslaymiz. Bir soʻz bilan seriallarni

Davlatlar milliy brendlarini seriallar orqali targʻib qilishga urinadi. Masalan, Janubiy Koreya seriallarida milliy avtomobil modellariidan foydalaniladi. Serial qahramonlarining bir xil telefon ishlatishi, soat taqishi tasodif emas, qaysidir milliy brend yoki kompaniya mahsulotlarining targʻibotidir.

Katta qahva plantatsiyalari bor Meksika, Kolumbiya, Braziliya seriallari qahramonlari koʻp hollarda qoʻllarida qahva bilan ekranda namoyon boʻladi. Dunyo oshxonalarida turli milliy brendlar sifatida sotilayotgan mahsulotlar ommalashtirishda ham shu davlat seriallarining oʻrni katta. Hatto oʻzimizning kafe, restoranlarda sotilayotgan bunday mahsulotlar taʼm boʻyicha oddiydan farqli boʻlmasa-da, qimmatroqqa baholalanadi. Umuman, bunda seriallarning hisssasi salmoqlikdir. Shu maʼnoda, seriallar brendlar yaratadi va ularni dunyo miqyosida ommalashtirishda muhim rol oʻynaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Turizm, yengil sanoat Oʻzbekiston iqtisodiyotida shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan muhim tarmoqlardan. Bunga keyingi yillarda ushbu sohalar alohida eʼtibor qaratilayotgani, yangidan yangi tashabbus va loyihalar hayotga tatbiq etilayotgani zamin yaratmoqda. Ammo soha rivojida keng miqyosdagi targʻibot kuchiga ega mediakontentlar, xususan, serial, kino, shu yoʻnalishlardagi bloglardan yetarli darajada foydalanilmayapti, nazardir.

Xulosa oʻrnida

Dunyo boʻyicha minglab seriallar suratga olinadi. Ularning barchasi ham mashhurlikka erishavermaydi va mamlakat iqtisodiyoti, ayniqsa, turizm sohasiga salmoqli hissa qoʻshavermaydi. Sayyohlik oqimini koʻpaytirgan “Qish sonatasi”, “Garri Potter”, “Uzulkar hukmdori”, “Taxtlar oʻyini”, “Chuqur” kabi seriallar aynan ushbu maqsadda suratga olinmagan. Ularning muvaffaqiyati miqyosi kengayib, boshqa sohalar rivojiga ham ijobiy taʼsir etgan, xolos.

Birinchi navbatda, bu seriallarga asos boʻlgan asarlar kitob holida ham nodir edi. Xususan, ayrim manbalarda “Taxtlar oʻyini” serialiga xamiturtushtirish vazifasini oʻtagan “Muz va olov qoʻshigʻi” kitobi ekranlashtirilishidan oldin 2 million nusxadan ortiq chop qilingani qayd etiladi. Keyinchalik oʻz ishingni ustalari tomonidan ekranlashtirilgach, uning ommabopligi mintaqaviydan global darajaga koʻtariladi.

Shu bois, birinchi navbatda, milliy ruh singdirilgan sifatli milliy mediakontentlar tayyorlashga asosiy eʼtiborni qaratish hamda ularni dunyo miqyosida ommalashtirish lozim. Shundagina milliy mediakontentlarimiz ham madaniy, ham mafkuraviy, ham iqtisodiy manfaat keltiradi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri